

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning "Risolai havroiyya" asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi "Dehqon" jurnalining tarixi 229

O'.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o'ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta'lim-yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta'minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning dolzarbligi 302

M.G'anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish 311

**TURKISTON ZIROATCHILIK VA DAVLAT MULKI BOSHQARMASINING “DEHQON”
JURNALI TARIXI**

**ИСТОРИЯ ЖУРНАЛА «ДЕХКАН» УПРАВЛЕНИЯ ЗЕМЛЕДЕЛИЯ И
ГОСУДАРСТВЕННЫХ ИМУЩЕСТВ ТУРКЕСТАНА**

**HISTORY OF "DEHKON" MAGAZINE OF THE AGRICULTURAL AND STATE
PROPERTY ADMINISTRATION OF TURKISTAN**

Iminov Begzod Begijonovich¹

¹Iminov Begzod Begijonovich

– Farg’ona davlat universiteti, O‘zbekiston tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqola XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida yer-suv munosabatlarining ommaviy axborot vositalarda yoritilishi, shuningdek, Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasining “Dehqon” jurnali tarixi, faoliyati yoritilgan. Turkiston o‘lkasi xalq xo‘jaligini matbuotda yoritilishi va aholining turmush tarzida qishloq xo‘jaligini o‘rni ko‘rsatib berilgan. Ekin maydonlarida ekiladigan paxta navlari, bog‘dorchilik va parrandachilikka to‘xtalib o‘tilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена освещению в средствах массовой информации земельно-водных отношений в Туркестанском генерал-губернаторстве в конце XIX начало XX века, а также истории, деятельности журнала “Дехкан” туркестанского управления земледелия и государственных имуществ. Было показано освещение в прессе народного хозяйства Туркестанского края и роль сельского хозяйства в образе жизни населения. Рассматриваются сорта хлопка, выращиваемые на пахотных землях, садоводство и птицеводство.

Abstract

This article covers the coverage of land-water relations in the Turkistan General-Governorship in the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, as well as the history and activities of the “Dehqan” magazine of the Turkestan Agriculture and State Property Department. The national economy of Turkistan is covered in the press and the role of agriculture in the lifestyle of the population is shown. The varieties of cotton planted in the fields, horticulture and horticulture were discussed.

Kalit so‘zlar: ziroatchilik, mulkdorlar, yer egaligi, paxta navi, davlat mulki boshqarmasi, ijtimoiy o‘zgarishlar, xalq xo‘jaligi.

Ключевые слова: земледелие, землевладельцы, землевладение, сорт хлопка, управление государственным имуществом, социальные изменения, народное хозяйство.

Key words: agriculture, land owners, land ownership, cotton variety, state property management, social changes, national economy.

KIRISH

Ma’naviy boyligimizni tadqiq etish orqali tariximizni xolis ochib berish tarixchi olimlarga katta mas’uliyat yuklab kelgan. Bu borada xalqning qadimgi tarixini yoritib beradigan birlamchi yozma manbalar saqlovchisi bo‘lgan arxiv va kutubxonalar faoliyatini tartibga solish, sohani rivojlantirish ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishiga imkon beradi. Xususan, arxivlar faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish maqsadida qabul qilingan qator huquqiy me’yoriy hujjatlar O‘zbekistonda arxiv ishi sohasi rivojlanishining yangi davrini boshlab berdi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o‘tmishimizdagi ko‘pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda” – deb ta’kidlaydi [1:45].

Tarixni xolis va haqqoniy yoritish yangi taraqqiyot bosqichining eng asosiy vazifasi bo‘lishi darkor. Tarixchi olimlar oldida turgan muhim vazifalardan yana biri vatanimizni Rossiya imperiyasi bosqindan keyin ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni yoritib berishdan iborat.

Hozirgi kunda O'zbekiston Milliy arxivi fondida saqlanayotgan Turkiston qishloq xo'jaligi ilmiy jamiyati va Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi tarixi haqida ma'lumot beradigan hujjatlar ichida "Dehqon" jurnali xalqimizning ziroatchilik, chorvachilik, bog'dorchilik sohalaridagi boy tarixini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi [2.3]. Shu maqsadda o'lkadagi agrar soha tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar beradigan "Dehqon" jurnalini tadqiqot obyekti sifatida olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XX asrning 20–30-yillariga kelib, Turkistonda yer-suv munosabatlari, uni tizimli boshqarish masalalari va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar mintaqaning turli hududlarida yangicha metodikalarga asoslangan holda amalga oshirildi. Xususan, S.Timayev, V.I.Masalsikiy, V.V.Zaorskaya, V.N.Ogloblin, S.R.Konopka, A.I.Dobrosmslov, S.A.Anuchin kabi olimlarning izlanishlari natijasida o'rganilayotgan muammoning ko'pgina jihatlariga aniqliklar kiritildi.

XX asrning 40–60-yillarda P.M.Ponomarev, V.S.Gudoshnikov, S.A.Minasyanst, A.A.Suxanov, D.D.Erlix singari olimlar tomonidan olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijasida Turkistonda davlat mulki va dehqonchilik sohasidagi o'zgarishlar, qishloq xo'jaligida ekin yerlariga ekiladigan ekin turlari, O'rta Osiyo paxta navi va bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilikda erishilgan yutuqlar o'rganilgan. Mustaqillik yillariga kelib, Turkistonda qishloq xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi, paxta navlarining yangi sortlarini kirishi va ekilishi, bog'dorchilik an'analari davom etishi, ipakchilikdagi o'zgarishlarga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borildi. A.A.Asqarov, A.Xo'jayev, A.Sharoffidinov, S.B.Shadmonova, N.Alimova, H.Jo'rayev, A.Berdumuradov, O.Nosirov tadqiqotlarida sovet davridagi ilmiy qarashlarning mazmun-mohiyatiga tanqidiy baho berish bilan birga, mavjud nazariyalar va yondashuvlardagi ijobiy jihatlarni ajratib ko'rsatish zarurati ta'kidlandi[3.8].

NATIJALAR

O'sha davrlarda Rossiya imperiyasi hukmron doiralari va mustamlaka ma'muriyati tomonidan daromad manbai sifatida qaralgan yerdan unumli foydalanish va mahalliy aholiga ilmiy va texnik yordam berish rejaları ishlab chiqilgan. Ammo dastlabki vaqtlarda agrar yordam mahalliy aholiga emas, balki ko'chirib kelingan rusiyzabon dehqonlariga ko'proq ko'rsatilgani yetarlicha foyda keltirmagan. Shundan so'ng xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun o'zbek tilidagi birinchi qishloq xo'jaligi jurnali – "Dehqon" nashr etila boshlandi. Mazkur jurnal 1914-1925 yillar davomida Turkistonda musulmon dehqonlariga ziroatchilikni olib borish, qanday mahsulotlar yetishtirish, urug'lardan foydalanish, ko'p hosil olish, chorva va parrandalarning eng yaxshi nasllari haqida qimmatli ma'lumotlarni berib borgan [4. 48].

MUHOKAMA

Turkiston qishloq xo'jaligi ilmiy jamiyati va Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi tarixi haqida ma'lumot beradigan hujjatlar ichida "Dehqon" jurnali tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, unda 1914-yildan ziroatchilik, bog'dorchilik, uy chorvachiligi va asalarichilik sohalarini rivojlantirishga oid maqolalar muttasil chop etib kelingan. Jurnal tashkilotchisi O'rta Osiyo ilmiy-tadqiqot instituti ilk ta'sischilaridan biri, mashhur olim, agronom Shreder Richard Rixardovich Turkistonda yetishtiriladigan mahalliy bug'doyning 1000 dan ortiq navini o'rgangan, bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilikda 42 yil mehnat qilgan mutaxassis edi. Jurnal 1916-yilga kelib 6 oy davomida o'lkada qog'oz mahsulotlarining tortilishi va narxi qimmatlashishi natijasida nashr etilmagan. 1917-yilning yanvaridan 1924-yil oktyabrgacha har oy nashr etilishi davom ettiriladi [5. 43-46].

1917-yilda vaqtinchalik muharrir vazifasida ishlagan G.V.Andreyev tomonidan nashrga tayyorlangan. Hattoki 1916-yil obunasi uchun mablag' to'lab, lekin olmagan mushtariylarga jurnalning yangi sonlari tekin tarqatilgan. 1924-yil oktyabrdan 1925-yil fevralgacha ma'lum sabablarga ko'ra yana nashrdan chiqmaydi. O'zbekiston paxta komiteti va yer ishlari komissarligi tasarrufida fevral oyi o'rtasida yana chop etila boshlaydi. Mahalliy aholi tushunishi uchun eski o'zbek alifbosida ziroat ishlariga oid foydali maslahatlar berib borilgan [6.255].

Jurnalni o'rganish davomida aholi dehqonlari va rus agronomlari tomonidan to'plangan tajriba va bilimlar aholiga yetkazib turilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, 1915-yildagi ilk sonida g'o'za parvarishi haqidagi maqolada "Ota-bobolarimiz faqatgina jaydari g'o'zani ekishgan. Ammo ruslar viloyatimizga kelgandan so'ng, o'zlari bilan amirkon chigitlarni olib kelib eka boshlagan. Ammo amirkon g'o'zani har xili bo'ladir: sizlar "qora chigit", "malla chigit", "ko'k chigit" deganlarinigina bilasiz va endi amirkon chigitni hattoki "kening", "tarbur" navlari ham borligini

FALSAFA

eshitingiz. Ba'zilari tez, ba'zilari kech pishadigan, ba'zilari kalta, ba'zisi uzun paxta beradiganlari ham bor. Ba'zilari tog' oldida, ba'zilari eng ozig' joyda hosil bergan. Viloyatimizda ushbu xil g'oz podshoh hukumati tomonidan tajriba qilinganda Andijon atrofida ko'p hosil bergan, Jalolobod va O'sh atrofida kam hosil bergan. Shu sabab har biringiz o'zlarinigizga to'g'ri keladigan chigitni yaxshi bilmog'ingiz kerak" kabi paxta navlari haqida so'z yuritiladi [7.27]. Shuningdek, mana shu sonda bog'larga daraxt ko'chatlarini ekish bo'yicha ham maslahatlar berilgan. Ko'chatlarni noto'g'ri o'tqazish haqida "bog'bon bog'iga mevali daraxt o'tquzsa uzumga joy tashlab ketsin. Va uzum ekilsa uning orasiga daraxt ekilmasin. Chunki uzumga soya qiladi. Dehqonlar mevali daraxtlardan olma, nok, olcha oralariga daraxtlar ekishi foydali emas. Agarda daraxtlar qalin ekilsa yomon usub bo'lib, hosilni oz beradi. Bunday xatoni bog'bonlar ham takrorlab, bedazorlariga qalin qilib o'rik o'tqazadilar" kabi qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jurnalda ziroat ilmi hamda o'rganilgan bilimlarning amalda katta foydasi borligi haqida ham tushuntirish berilgan. Masalan, jurnalning 1917-yildagi sonlarning birida "bizning Turkiston dehqonlari Turkiston viloyatiga ruslar kelmasdan oldin omochdan boshqa hech bir yer haydaydigan asbobni va Amerika paxta urug'larini, bir xil rezavor mevalar ekish yo'llarini, daraxtlarni yaxshi payvand qilishni va asalarini yaxshi tarbiya qilish va shunga o'xshash ko'p narsalarni bilmas edilar. Rusiyabon xalqlar Turkistonga kelganlaridan boshlab ushbu aytilgan ziroat kamchiligi bizning Turkiston dehqonlariga ma'lum va oshkora bo'la boshlaydi. Bizning Turkiston dehqonlari rusalardan mazkur oson va foydalik uslublarni o'rganib oldingi ahvollaridan ancha yaxshilanib hayot turmush tarzi o'zgarib boshlaydi. Bu Turkiston dehqonlarini ziroat to'g'risida olgan foydalik ta'limlari shariat qonuniga hech bir xilof bo'lmay o'lka musulmonlariga ko'p foydalik tomonlari ko'p edi", – deb podsho Rossiyasi tomonidan foydali ilmlardan xalq foyda ko'rganliklarini tasdiqlab bermoqda. Shuningdek, jurnalda dehqonlarning uy parrandalaridan ham foyda topishliklari bo'yicha maslahatlar berilgan. Xususan, maqolada "tovuqlarning har xili ko'pdir, ammo bizning Turkiston dehqonlariga oson boqish uchun rotayland degan qizil patlik tovuqlar juda to'g'ri kelgan. Bu tovuqlar chidamli va boqishli bo'lgan. Shu parrandalar xo'rozlarining vazni sakkiz qadoqdan o'n qadoqqacha kelgan. Ammo tovuqlarning vazni olti qadoqdan tortib sakkiz qadoqqa qadar kelgan. Tovular och qizil rangda katta, katta bo'lgan va qish vaqtida boshqa tovuqlar tuxum qo'ymagan vaqtda bu tovuqlar tuxum qo'yg'nanlar. Xo'rozlari nihoyatda chaqqon xislatlik bo'lishgan. Tovulari yaxshi tuxum qilgan va tuxum bosib jo'ja ochishga yotganda tinch yotib tuxumdan chiqqan jo'jalarni yaxshi tarbiya qilib boqqanlar. Bu turdagi tovuqlar bir yilda 150 donadan ko'proq tuxum qilganligi" bo'yicha qiziqarli ma'lumotlarga duch kelishi mumkin. Bu rod-ayland³² degan tovuqlarni qaydan topsa bo'ladi deb savolga Ziroatchilik jamiyati tomonidan quyidagicha javob berilgan: buni (rod-ayland) Konstantinski degan ko'chada, Salor arig'i bo'yidagi Ziroat jamiyati o'z hovlisida boqib ko'paytirishini ma'lum qilgan. Jamiyat a'zosi S.S.Bogalovskiy "Zeroki bu tovuqlar benihoya ko'p mazali go'sht va katta tuxumlarni va chiroylik jo'jalarni berib turgan. Agar ba'zi dehqonlar bu tovuqlarni boqish to'g'risidan qiynalib qolsalar, chunonchi tovuqlar kasal bo'lib qolsa yoki o'lib qolsa yoki ko'p tuxum qilmasa va boshqa shubhalarga tushsalar shu vaqtda mazkur shubhalarni yo'q qilish uchun tomoshabog' oldidagi bizning ziroat jamiyati hovlisiga har hafta payshanba kuni kechqurun soat 5 dan to 7 gacha kelsalar bular edi", deya yozib qoldirgan ekan.

"Dehqon" jurnali Turkiston o'lkasi xalq xo'jaligini rivojlantirish, aholining ziroatchilik madaniyati va bilimni oshirish maqsadida tashkil qilingani o'sha davr uchun juda muhim edi. O'zMA kutubxonasida mazkur jurnalning 1915-1917, 1921-1922 va 1925 yillarda nashrdan chiqqan nusxalari saqlanmoqda [8.89].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turkiston qishloq xo'jaligi ilmiy jamiyati va Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi tarixi haqida ma'lumot beradigan "Dehqon" jurnali 1914-yildan Turkistonda ziroatchilik, bog'dorchilik, uy chorvachiligi va asalarichilik sohalarini rivojlantirishga oid maqolalar orqali hududdagi jarayonlarining tarixiy tahlili, bu yerda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'ziga xos yo'l bilan rivojlanganligini ko'rsatadi. Bundan, o'z navbatida, o'sha davr siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari yuzasidan aniq va ma'lum holatlarda ijtimoiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Turkiston qishloq xo'jaligida o'sha davrda qisman rivojlanish bo'lganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

³² Rod-ayland –Amerikadan keltirilgan tovuq zoti.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b. (Mirziyoyev Sh.M. New Uzbekistan strategy. - Tashkent: "Uzbekistan" publishing house, 2021. - 464 p.)
2. <https://www.uzanalytics.com/>. Shodmonova S. Turkistonda ilk reklamining shakllanishi va vositalari. //Uz.anatalik// 2020. 3 b. (Shodmonova S. Formation and tools of the first advertisement in Turkistan. //Uz. anatalik// 2020. 3 p)
3. Alimova N.O. O'zbekistonda ipakchilikning ahvoli va transformasiya jarayonlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: "Sharq", 2018. –57 b. (Alimova N.O. The state of silk industry in Uzbekistan and transformation processes. Doctor of Philosophy (PhD) thesis on historical sciences. - Tashkent: "Sharq", 2018. -57 p.)
4. Otamirzayev A.P. Turkiston matbuotining tarixi va buguni. – Toshkent: "Bo'ston" 2015. – 255 b. (Otamirzayev A.P. History and today of Turkistan press. - Tashkent: "Bo'ston" 2015. - 255 p.)
5. O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 27-ro'yxat, 3466-ish, 43-46-varaqlar. (MDA of the Republic of Uzbekistan, Fund I-1, list 27, case 3466, pages 43-46.)
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri. Tuzuvchilar. M.Jo'rayev va.b, – Toshkent, 2000, – 455 b. (New history of Uzbekistan. The second book. The period of Soviet colonialism of Uzbekistan. Compilers. M. Jorayev et al., - Tashkent, 2000, - 455 p.)
7. O'zR MDA, I-1-jamg'arma, 27-ro'yxat, 1198-ish, 27-varaqlar. (MDA of the Republic of Uzbekistan, Fund I-1, list 27, case 1198, sheets 27.)
8. Assatullayev I. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 589 b. (Assatullayev I. Agriculture of Uzbekistan. - Tashkent: "Uzbekistan" publishing house, 2021. - 589 p.)